



YOSHLAR ONGIGA IJTIMOIIY TARMOQLARNING TA'SIRI

Yunusova Marjona Zaynobiddin qizi

Annotatsiya: Mazkur maqolada ijtimoiy tarmoqlarning yoshlar ongiga ko'rsatadigan ijobiy va salbiy ta'sirlari ilmiy-tahliliy asosda yoritilgan. Bugungi globallashuv davrida ijtimoiy tarmoqlar yoshlarning dunyoqarashi, fikrlash tarzi va xulq-atvorini shakllantiruvchi muhim omillardan biriga aylangan. Maqolada ushbu jarayonda yuzaga kelayotgan muammolar, ularning sabablari hamda amaliy yechimlar bayon etilgan. Shuningdek, yoshlar ongini himoyalash va ijtimoiy tarmoqlardan samarali foydalanish bo'yicha tavsiya va takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: ijtimoiy tarmoqlar, yoshlar, ong, internet, media savodxonlik, psixologik ta'sir.

KIRISH

Buyuk mutafakkir Abu Nasr Forobiy "Inson kamoloti to'g'ri muhit va tarbiya bilan chambarchas bog'liq" deb ta'kidlagan. Darhaqiqat, inson ongining shakllanishida u yashayotgan muhit muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda esa yoshlar uchun eng kuchli ta'sir ko'rsatuvchi muhitlardan biri — bu ijtimoiy tarmoqlardir. Zamonaviy jamiyatda ijtimoiy tarmoqlar yoshlar hayotining ajralmas qismiga aylangan.

Ular orqali yoshlar axborot oladi, muloqot qiladi va o'z fikrlarini bildiradi. Biroq bu jarayon bilan birga qator muammolar ham yuzaga kelmoqda. Mazkur maqolada ijtimoiy tarmoqlarning yoshlar ongiga ta'siri bilan bog'liq muammolar tahlil qilinadi hamda ularning ijobiy va salbiy jihatlari yoritiladi.

Asosiy qism

Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlarning yoshlar hayotidagi o'rni borasida turli munozaralar mavjud. Ayrim mutaxassislar ularni taraqqiyot omili deb hisoblasalar, boshqalar esa yoshlar ongiga salbiy ta'sir ko'rsatayotganini ta'kidlashadi va bu masalaga muvozanatli yondashish muhim hisoblanadi

Ijtimoiy tarmoqlarning ijobiy jihatlardan biri — bilim olish imkoniyatining kengayganidir. Hozirda ko'plab yoshlar Telegram, YouTube va boshqa platformalar orqali xorijiy tillarni o'rganmoqda, kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirmoqda va turli onlayn kurslarda ishtirok etmoqda.

Ularga misol qilib "Ibrat Academy", "Duolingo", "Mutolaa" kabilarni keltirish mumkin. Bu holat ijtimoiy tarmoqlarning to'g'ri va maqsadli foydalanilganda katta foyda keltirishini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, ijtimoiy tarmoqlarning salbiy ta'siri ham yo'q emas. Yoshlarning ortiqcha vaqtini virtual makonda o'tkazishi ularning real hayotdagi faolligini pasaytiradi, shu sababli inson sog'lig'ida bir qancha muammolarni keltirib chiqaradi. Bundan tashqari, psixologlarning ta'kidlashicha, ijtimoiy tarmoqlardagi sun'iy "ideal hayot" tasvirlari yoshlar ongida o'ziga nisbatan ishonchsizlik, tushkunlik va stressni kuchaytiradi. Bundan tashqari, yolg'on va zararli axborotlarning tez tarqalishi yoshlar dunyoqarashiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.



Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, kuniga bir necha soatdan ortiq ijtimoiy tarmoqlarda vaqt o'tkazadigan yoshlar orasida diqqatni jamlash qobiliyati pasayishi kuzatilmoqda, chunki ko'p ijtimoiy tarmoqlardagi videolar qisqa metrajli bo'lib, diqqatni jamlashni qiyinlashtiradi. Bu esa ularning o'qish jarayoniga bevosita salbiy ta'sir qiladi.

Muammoni hal etish uchun bir qator amaliy tavsiyalarni keltirish mumkin. Avvalo, yoshlar orasida media savodxonlikni oshirish zarur.

Ularni har bir axborotni tanqidiy tahlil qilishga o'rgatish muhimdir. Shuningdek, ota-onalar va pedagoglar tomonidan ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish vaqtiga me'yor belgilanishi va bu haqida ma'lumotlar berilishi lozim.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, ijtimoiy tarmoqlar yoshlar ongiga kuchli va ko'p qirrali ta'sir ko'rsatadi. Ular to'g'ri foydalanilganda bilim olish va shaxsiy rivojlanishga xizmat qilsa, noto'g'ri foydalanilganda turli psixologik va ijtimoiy muammolarni keltirib chiqaradi.

Asosiy qismda keltirilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, muammoni hal etishning eng samarali yo'li — yoshlar orasida media savodxonlikni rivojlantirish va ijtimoiy tarmoqlardan ongli foydalanish madaniyatini shakllantirishdir.

Mazkur maqola yoshlar, ota-onalar va pedagoglarni ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishda mas'uliyatli bo'lishga undaydi hamda jamiyatda ijobiy axborot muhitini shakllantirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Karimov I.A. "Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch" — Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
2. Forobiy A.N. "Fozil odamlar shahri"
3. "Xalq so'zi" gazetasi materiallari.
4. Yoshlar va ijtimoiy tarmoqlar mavzusidagi ilmiy maqolalar.
5. Ommaviy axborot vositalarida e'lon qilingan tahliliy materiallar.
6. Internet manbalari va ochiq ma'lumotlar bazalari.